



YANGI O'ZBEK SHE'RIYATIDA OLAM BADIYIY MANZARASINI GUL TIMSOLLARI ORQALI IFODALASH POETIKASI

O'roqova Nafosat Yoriyevna

Buxoro davlat universiteti dotsenti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

n.y.uroqova@buxdu.uz

91-447-25-06

MAQOLA HAQIDA

Qabul qilindi: 24-sentabr 2024-yil

Tasdiqlandi: 26-sentabr 2024-yil

Jurnal soni: 12

Maqola raqami: 24

DOI:

<https://doi.org/10.54613/ku.v12i.1001>

KALIT SO'ZLAR / КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА /

KEYWORDS

badiiy adabiyot, lirika, olamning badiiy manzarasi, xalq qo'shiqlari, mumtoz she'riyat, yangi o'zbek she'riyati, obraz, floristik obraz, gullar obrazi, ramz.

ANNOTATSIIYA / АННОТАЦИЯ / ANNOTATION

Maqolada zamonaviy she'riyatda olamning badiiy manzarasini floristik obrazlar orqali ifodalash poetikasiga diqqat qaratilgan. Shu o'rinda, mazkur obrazlarning asosiy turlaridan biri hisoblanadigan gul timsollari badiiy adabiyotimizdagi asosiy kategoriyalardan biri ekanligiga urg'u berilgan. Qadimda turkiy xalqlar ayrim o'simlik, daraxt, hayvon yoki qushlarga kult sifatida qarashgan. Ular bilan bog'liq inonchlarga sig'inishgan. Xalq poeziyasining ibtidoiy davrlarida, floristik va faunistik obrazlar turli xalq inonchlariga ko'ra, keyinchalik esa o'zining yashash sharoiti, tashqi tuzilishi, umumiy xarakter-xususiyatidan kelib chiqqan holda majoziy-ramziy ma'no ifodalaganligi ilmiy asoslangan. O'simlik va gullarni jonli deb bilish natijasida qadimdan xalq folklorida xotin-qizlarni gulga, ayrim o'simliklarga qiyoslash an'anasi mavjud bo'lgan. Ular orqali xalq dilidagi dardlarini, qalb kechinmalarini yorqin ifoda eta olganligi dalillangan. Bundan tashqari, mumtoz lirik asarlarimiz xalq poeziyasidan oziqlangan holda davom ettirilgani, unda mavjud poetik obrazlar tadrijiy ravishda o'sib borganligi yoritilgan. Insonlarning xarakter-xususiyatlari, jamiyatda hukm surgan siyosiy vaziyat, oddiy xalqning umumiy ahvoli, ularning ruhiyati, kayfiyati, alam-dardi, moddiy turmush tarzi o'simliklar, gullar, daraxtlar, qushlar hamda hayvonlarning poetik obrazlari orqali ramziy gavdalanirilib, badiiy maqsadga erishishga intilish kuchaygan. Zero, maqolada olam badiiy manzarasini floristik obrazlar vositasida ifodalash yo'sinida mumtoz lirikamiz an'analariga sodiqlik bir qadar saqlanib qolganligi misollar orqali ko'rsatilgan va H.Olimjon, E.Vohidov, J.Kamol g'azallari asosida dalillangan. Ularning ijodida janr, obraz, she'riy san'atlar va poetik tasvir usuli masalalarida mumtoz she'riyat an'analarini davom ettirilgani asoslangan. Mazkur maqolada yangi o'zbek she'riyatida faol qo'llanib kelinayotgan gullar obrazi yuqorida tilga olingan xususiyatlarga ko'ra atroflicha o'rganilgan va uning ilmiy-nazariy asoslari yaratilgan.

Kirish. Olamning tuzilishi haqida insoniyat doimo o'z qarashlariga ega bo'lgan. Eng qadimgi davrdayoq kishilar bahorda daryolar toshishi, kun uzaya boshlashi, yomg'ir va momaqaldiroqlar bo'lishi ajib bir qonuniyatga bo'ysunishini anglab yetganlar. Insoniyat tarixida ilk bor qum soatni o'ylab topgan yoki dastlabki yil taqvimini kashf etgan ajdodlarimizning ham bu borada o'z davriga xos tushunchalari bo'lgan. Dunyoning dastlabki manzarasi mifologik xarakterda bo'lib, olamning tuzilishi, asosan, afsona va rivoyatlar, asotirlarda ifodalangan tushunchalar, g'oya va tamoyillarda o'z aksini topgan. Ular nihoyatda sodda va oddiy tasavvurlarga asoslangan, yillar o'tib asta-sekin takomillashgan. Dinning ilk shakllaridanoq olamning tuzilishi ilohiy kuchlarga, xudolarga bog'lab talqin qilingan, dunyoning ibtido va intihosi ham u bilan bog'langan.

Inson jamiyat, tabiat va koinot bilan bir butunlikda mavjuddir. Shu nuqtayi nazardan uni borliq obyektlari, hodisalari ichida yondosh holatda tasvirlash maqsadga muvofiq bo'ladi. Flora va fauna dunyosiga mansub barcha unsurlar olamning badiiy manzarasini anglash va uni ifoda etishda qo'llanib kelingan. Xalq og'zaki ijodida ham, mumtoz adabiyot namunalari ham zamonaviy she'riyatimizdagi kabi o'simliklar hamda hayvonlar obrazini faol uchratishimiz tabiiy holdir. Chunki ular insoniyat tirikligining bir qismi sanaladi.

Olamning badiiy manzarasini ifodalashda floristik obrazlarga murojaat etish she'r yaralgan ilk davrlardanoq kuzatilgan adabiy hodisa sanaladi. Yangi o'zbek she'riyatida ham flora olamiga qiziqish, hayot manzarasini ushbu obrazlar orqali tasvirlash an'anasi davom etdi. O'simlik, daraxt, gul obrazlari o'z ma'nosidan tashqari turli ramziy ma'nolarni ham tashishda xizmat qiladi. Bu, albatta, shoirning tashqi olamni qanday qabul qilish, uni analiz-sintez qila olish qobiliyatidan kelib chiqadi. Binobarin, bu jarayon turli ijodkorlarda turli shakllarda bo'y ko'rsatadi.

She'riyatda floristik obrazlar lirik kechinmani talqin qilish uchun faol ishtirok etadi. U lirik qahramon ruhiyati, his-tuyg'ularini ifoda etish kabi badiiy-estetik vazifalarni bajarish xususiyati bilan diqqatga sazovordir. Gul obrazi bir necha badiiy san'atlar, jumladan, tashbeh, istiora, tamsil, husni ta'lil va ramzga asos bo'ladi. Ko'ngilning lolaga, ma'shuqa qaddi qomatining sarv va shamshodga, yor go'zalligining rayhon, suman, qizil gulga o'xshatilishi o'zbek mumtoz she'riyatida an'anaviylashgan. Yangi o'zbek she'riyatida esa mazkur obrazlarning ayrimlari ilk ma'nolarini saqlab qolgan bo'lsa, ayrimlari esa yangicha ohang va yangicha mazmun kasb etdi.

Mustabid tuzum yillarida yashab ijod qilgan shoirilar lirikasida ozodlikka intilish, hurlik uchun kurash, mustaqillikka eltuvchi yagona yo'l sifatida ilm-ma'rifatni targ'ib qilish singari xususiyatlar o'zini yorqin namoyon qildi. Xususan, A.Avloniy she'riyatida gul obrazi vatan timsolini gavdalanirib keldi. Erk kuychisi Cho'p'oning "Binafsha" she'ri ham ijtimoiy muhit ta'sirida yaratilgan. Unda binafsha timsoliy istiloh sifatida qo'llangan bo'lib, bahorning elchisi emas, aksincha, hurlik, ozodlik ramzini ifodalab kelgan. yurtimiz mustaqillikka erishganining ilk yillaridan boshlab mo'jizakor tabiatga, ona zaminga, muqaddas tuproqqa muhabbat sadolari yanada balandroq yangradi. Vatan timsoli, millat koloriti floristik obrazlarni ramziy ma'noda qo'llash orqali yangicha ohangda gavdalandi. A.Oripov, S.Sayyid, H.Xudoyberdiyeva, M.Yusuf, Sh.Sulaymon she'rlarida shunday yoniq tuyg'ular bo'y ko'rsatdi.

Adabiyotlar tahlili va tadqiqot metodologiyasi. Maqolada tilga olingan "Olamning badiiy manzarasi" termini o'zbek adabiyotshunosligida yangi ilmiy atama hisoblanadi. Chunonchi, R.X.Shirinova¹, D.K.Baxronova² larning tadqiqotlari bu mavzuga yaqin, ammo ularda olamning badiiy manzarasi haqida biror fikr uchramaydi. Bu yo'nalishda rus, tatar adabiyotshunosligi, tilshunosligi, madaniyatshunosligi hamda falsafa sohasida qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. Masalaga she'riyat nuqtai nazaridan

¹ Широнова Р.Х. Олам миллий манзарасининг бадий таржимада қайта яратилиши. Докторлик (DSc) диссертацияси автореферати. – Т., 2017.

² Бахронова Д.К. Ўзбек ва испан тилларида олам манзарасининг лингвокогнитив категорияланиши. Фил. фан. бўйича док. дисс. автореф. – Т., 2017.

yondashgan K.A.Ojereyev K.S.Aksakov lirikasi misolida quyidagicha munosabat bildiradi: "K.S.Aksakovning dastlabki falsafiy she'riyatining motivli-obrazli dunyosi yer va osmon, individuallik va samoviylik birligi bilan ajralib turadi. She'riyatda «sintez»dan foydalanish slavyanofilga turli she'riy va madaniy an'analarni (slavyan, pravoslav, g'arbiy Yevropa, Sharq va boshqalar), falsafiy toifalarni organik ravishda birlashtirishga imkon beradi. K.S.Aksakov she'riy dunyoqarashining o'ziga xos xususiyatlari universallik, dialektiklik, proteizm va kosmizmga intilishda namoyon bo'ladi"³. Demak, K.C.Aksakov she'riyatining uslubiy o'ziga xosligi unda zamin va zamon muammolarining falsafiy idrok etilishi, universallik, dialektizm, proteizm, kosmizmga intilishida yuzaga kelganligi olamning badiiy manzarasi tushunchasida mujassam topgan.

G.M.Guseynova olamning badiiy manzarasini yaratuvchilaridan yana biri sifatida metaforani ko'rsatadi, uning olam badiiy manzarasida estetik vazifa bajarishini ta'kidlab yozadi: "Metafora badiiy adabiyotda estetik vazifa bajaradi, shu orqali uning badiiy ta'sirchanlik kuchi oshadi"⁴.

Demak, olamning badiiy manzarasini floristik obrazlar orqali ifodalash poetikasi zamonaviy o'zbek adabiyoti davriga qadar ham chuqur o'rganilmagan. Maqola va ayrim tadqiqotlar doirasida ifodalangan fikr-mulohazalar mazkur mavzuning to'liq yoritilmaganligini tasdiqlaydi. Shu jihatdan ushbu kichik tadqiqotimiz dolzarb ahamiyatga egadir.

Maqolada yangi o'zbek she'riyatida gul obrazining genezisi, badiiyati masalasini tadqiq qilishda qiyosiy tarixiy, qiyosiy-tipologik, lingvistik, analitik tahlil usullaridan foydalanildi.

Muhokama va natijalar. Floristik obrazlarga murojaat etishda davr masalasini inobatga olish lozim. Shu nuqtayi nazardan, yangi o'zbek she'riyatini quyidagi bosqichlarga bo'lib o'rganishni maqsadga muvofiq deb topdik:

1. Mustamlaka (1900-1990) yillari o'zbek lirikasida floristik obrazlar poetikasi

2. Istiqoldan keyingi (1991) yillar o'zbek she'riyatida floristik obrazlar talqini

Mumtoz she'riyatimizda bir necha asrlar davomida kuyilanib kelingan gul, g'uncha, binafsha, boychechak, lola, lolaqib'aldoq kabi bir qancha floristik obrazlar mustamlaka davri adabiyotida yangicha mazmun kasb etdi. Mumtoz lirikadan farqli ravishda ushbu obrazlar talqinida ham ijtimoiylashuv jarayonlari kechdi. Ya'ni mazkur obrazlar vositasida xalqimiz asrlar davomida intilgan mustaqillik, hurlik g'oyalari tajassum topdi. Bu, ayniqsa, yangi she'riyatning dastlabki davrlarida jadid she'riyatida yorqin ifoda topdi.

Mustabil tuzum yillarida yashab ijod qilgan shoirlar lirikasida ozodlikka intilish, hurlik uchun kurash, mustaqillikka eltuvchi yagona yo'l sifatida ilm-ma'rifatni targ'ib qilish singari xususiyatlar o'zini namoyon qildi. Xususan, Abdulla Avloniy she'riyatida gul obrazi avvalgi ifodasini yo'qotib, yangi mazmunga yo'g'irdi:

Xor alindan bag'ri qon o'lmish, bo'yanmish qona gul,
G'uncha bag'rin chok etub, afg'on qilur afsona gul...⁵ [2, 184]

Ko'rinadiki, Avloniyning mazkur g'azalida gul obrazi an'anaviy yor ramzida kelmagan. Balki u davr talabidan kelib chiqqan holda shoirning g'oyaviy maqsadi yo'lida xizmat qilgan. Bunda xor, bag'ri qon, gul, g'uncha, afg'on so'zlari bir-biriga yaqin, aloqador bo'lganligi bois tanosub san'atining betakror namunasini vujudga kelishida muhim rol o'ynagan. Gul ramz bo'lib, istiqolga intilgan insonni ifoda etgan. Chunki kurashchan insonning harakatlari g'uncha bag'rini chok etgan gulga o'xshaydi.

Qadrini bilmas kishilar so'ldurur gul yuzlarin,
Tushmasun johil qo'luga, bitmasun nodona gul [2, 185]

Shoir nazdida, gul qadrini bilmaslar, nodonlar va johillar qo'luga gulni tutqazmaslik kerak. Yo'qsa, ular gulning yuzini so'ldururlar. Mazkur g'azal tahlilini amalga oshirgan

adabiyotshunos olimlar B.Qosimov va Sh.Rizayevlarning qarashlari ham fikrimizni tasdiqlaydi: "Bu yerda gap muhabbat haqida emas: gul g'urbat va mashaqqatdan za'faron bo'lgan yuragini chok etib insonga ko'rsatadi... Beixtiyor xor (tikan) mustamlakachi istibdodini, bag'ri qon gul esa jafokash Turkistonni eslatadi" [16]. Darhaqiqat, g'azal kontekstiga davr nuqtayi nazaridan yondashadigan bo'lsak, gul obrazi Vatan timsolida gavdalanганиni payqash qiyin emas.

Yangi o'zbek adabiyotining atoqli namoyondalaridan biri Fitrat ijodida gul obrazi alohida ahamiyat kasb etadi. U mahbusasiga "Gulim", deb murojaat qiladi:

Qizil gulim, borlig'imning sultoni!
Jonim, sening xayolingda kuchaydi.
Yuragimning eng qimmatli armoni,
Nechuk menga marhamating ozaydi?⁶

Gul, an'anaga ko'ra, ma'shuqa timsolida gavdalanadi. Qizil gul esa ayni balog'atga yetgan yor ramzini ifodalab keladi. Demak, mazkur she'r muallifning yoshlik chog'larida bitilganini taxmin qilishimizga asos bo'ladi. "Yuragimning eng qimmatli armoni" jumlasidan bilish mumkinki, lirik qahramon ma'shuqasi visolidan umidvor. Biroq uning "marhamati ozaygan". Shunday bo'lsa-da, oshiq ma'shuqasini borlig'ining sultoni deb biladi. She'rda istiora san'atini qo'llash orqali poetik butunlikka erishilgan. Agar davrni inobatga olsak, balki bu she'rda ham gul obrazi yor ramzini ifodalagan, degan xulosa berish xato bo'lmas. Albatta, shoirning o'zi bu haqda hech qayerda biror mulohaza yozib qoldirmagan. Shunga ko'ra, bundagi mahbuba uning mustamlaka Vatani bo'lishi mumkin.

Xalq uchun hamisha kuyinib she'rlar bitgan, erk kuychisi Cho'lponning "Binafsha" she'ri ham ijtimoiy muhit ta'sirida yaratilgan. Unda binafsha timsoliy istiloh sifatida qo'llangan bo'lib, poetik ifoda kengligiga ko'ra turfa ma'nolarni bildirib kela oladi:

Binafsha, senmisan, binafsha, senmi,
Ko'chada aqchaga sotilgan.
Binafsha menmanmi? Binafsha menmi,
Sevgingga, qayg'ungga tutilgan?⁷

Kimdir binafshani xo'rlangan, orzulari poymol bo'lgan qizga qiyoslasa, boshqa kishi unda Vatan aksini ko'radi. Bizning nazarimizga ko'ra, binafsha hurlik, ozodlik timsolini gavdalandirib kelgan. Chunki she'rning mazmun-mohiyati shu ma'no tomonga ko'proq tortadi. O'z yurtini arzimagan yulga sotganlar, uni qo'riqlash, himoya qilish o'rniga orqada pusib yurganlar qattiq qoralangan she'rda ijtimoiy ruh ustuvor. Shoir erkka - oshiq, unga - tashna. Ozodlik qayg'usi lirik qahramonni har on qiynab keladi. U esa ozodlikni o'ziga, atrofiga chorlaydi. Ko'kragini "erk yeri" deya ataydi. Bu birikma istiora san'atini yuzaga keltirib, poetik mazmunning ochilishida qo'l kelgan. She'rning "Menga bir kulmaysan" misrasi bilan yakunlanishi vaziyatning fojaviylik kasb etganini dalillaydi.

Birgina shu she'r misolida Cho'lponning o'z she'rlarini yangicha uslubda bitganini ko'rish mumkin. Unda shakl yangi, mazmun ifodasi o'zgacha, obrazlar novatorona. Demak, yangi o'zbek she'riyatining mazkur bosqichida bunday o'zgarish va yangilanishlar ijodkorlar asarlarida o'zini namoyon eta boshladi.

Hamid Olimjon lirikasida "G'azal" nomli she'r mavjud. U faqat g'azal janrida bitilgani uchun bunday nomlanmagan bo'lsa kerak. Aksincha, she'rning mavzu-mundariyasi shu nom bilan atashni taqozo etgan, nazarimizda. "G'azal" - arabcha so'zdan olingan bo'lib, xotin-qizlarning ko'nglini olish, erkalash⁸ degan ma'nolarni bildiradi. Demak, H.Olimjon g'azalni ayolga atab, unga hamdardlik ruhi bilan yozgan. Lirik qahramonning bir ayol nomini aynan tutmaganligi yoki o'z ma'shuqasiga murojaat qilmaganligini inobatga olib, uning umumiy holda o'z davri ayollariga - yosh qizlarga bag'ishlaganligini taxmin qilish mumkin:

G'uncha yanglig' burkanib, ko'ngling ochilmaydir nega,

³ Ожерельев Константин Анатольевич. Художественная картина мира в лирике К.С.Аксакова и И.С.Аксакова. Специальность 10.01.01 – русская литература АВТОРЕФЕРАТ диссертации на соискание ученой степени. – Омск, 2014.

⁴ Гусейнова Г.М. Концепты «свет» и «цвет» в художественной картине мира Ю.П. Казакова. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата филологических наук. – Махачкала, 2009.

⁵ Авлоний А. Танланган асарлар. 2 жилдлик. 1-жилд. Шейрлар. Ибратлар. – Т.: Маънавият, 1998. – Б. 185.

⁶ Фитрат, Абдурауф. Танланган асарлар. V жилдлик. I жилд. Шейрлар, насрий асарлар, драмалар. – Т.: Маънавият, 2000. – Б. 35.

⁷ Abdulhamid Cho'lpon. Binafsha. – Т.: Adabiyot, 2021. – В. 56.

⁸Ўзбек тилининг изоҳли луғати. А.Мадвалиев тахрири остида. – Т., 2006-2008. – Б. 427.

Ochilur fasli kelib, bo'ying sochilmaydir nega?⁹

30-yillar o'zbek she'riyatining mahsuli bo'lgan mazkur she'r orqali o'sha davrdagi ayol-qizlarning ijtimoiy-ruhiy holati qanday vaziyatda ekanligini anglash mushkul emas. Shoir talqinicha, ular turli siquvlar, diniy tushunmovchiliklar tufayli g'uncha singari o'z qobig'iga o'ralib olgan. Natijada, taraqqiyotdan orqada qolib, ilm-ma'rifatdan yiroqlashgan. Shoir ayol-qizlarning ham jamiyat bilan birga rivojlanishini, ramziy ma'noda gul singari ochilishini istaydi.

Mustamlaka davrining keyingi bosqichlarida yuqorida ta'kidlaganimizdek, floristik obrazlarga, xususan, gul obraziga erk va ozodlik, Vatan kabi ramziy ifodalarni yuklash an'anasi biroz susaygandek bo'ldi. Bunga sabab sifatida yillar o'tgani sayin ijtimoiy hayotda bo'lgani singari ma'naviy-madaniy sohalarida ham mavjud mafkuraviy holatga nisbatan adaptatsiya jarayoni o'z hukmini o'tkazanini ko'rsatish mumkin.

Asqad Muxtorning "Gul" nomli she'rida bosh obraz – gul hisoblanadi. Uning qanday gul turi ekanligiga ahamiyat qaratilmagan. Eng muhimi, uning gul, ya'ni chiroyli, nozik yaratilardan biri ekanligidir:

Kechir, faqat bir gul edim man,
Axir gulga kim qilar o'pka?
O'zimni samoviy xayol etibman,
Bir umr intilib quyoshga, ko'kka¹⁰.

Umrining so'ngida gul anglyadiki, uning qaddini tik tutib turgan, chiroyni ta'minlagan, aslida, tuproq ekan. Bunda gul – manman, kibrli kishilar obrazini gavdalandirgan. Shoir inson nimadan yaratilganini va so'ngida qayerga borishini, avvali kim ediyu, oxiri nima bo'lishini faylasufona bir tarzda she'r zamiriga singdirgan. E'tiborni tortadigan yeri shundaki, she'r so'ngida lirik qahramon umri tugash arafasida o'z aybini anglab yetadi va o'tgan hayoti davomida tutgan tutumidan pushaymonligini izhor qiladi. She'rdan kutilgan asosiy badiiy maqsad mana shu edi, aslida. Buni she'rxonga anglatish A.Muxtor uslubiga xos individual xususiyat ekanligi namoyon bo'ladi.

Lafziy san'atlar asarning til jihatdan jozibadorligini, ohangdorligini ta'minlashga yordam beradi. O'zining ko'plab g'azallari bilan yangi o'zbek she'riyatini boyitgan E.Vohidov mazkur janrning tadrijiy taraqqiyotiga ham ulkan hissa qo'shgan ijodkordir. Uning "Gulchehralar" g'azalida bir paytning o'zida ikkita san'at – ishtiyoq va raddi matla' ishlatilgan. G'azal "Gul bo'lib, gul-gul yonib, gulshan aro Gulchehralar"¹¹ misrasi bilan boshlanadi va shu misra bilan tugaydi. Bu raddi matla'dir. Birinchi baytning o'zida gul o'zagi asosida shakllangan o'zakdosh so'zlar (gul, gulshan,) so'zlari qatnashib, poetik fikrni yanada ta'sirchan ifodalashga yordam bergan. Bu ishtiyoqdir. Yana bir san'at – iyyom qo'llangan. Ya'ni "Gulchehralar" so'zi bir vaqtning o'zida shu nomdagi shoirlarni va ayollarni bildirib kelgan.

"Quyosh maskani" dostonida shoir o'zi tug'ilib o'sgan yurt Oltiariq, "ona shahri" Toshkent va, nihoyat, "Quyoshiston ta'rifi diyor" O'zbekistonga bo'lgan farzandlik mehr-u muhabbatini she'riy satrlar bag'riga tizadi:

Men ilk bor dunyoning xaritasida
Oltin uzuk yanglig' o'lkamni ko'rdim.
Zaminning do'ppidek bir pallasida
Hiloliy nusxa gul –
Bu mening yurtim!¹²

Betakkor tashbehlar va metaforalar bilan ziynatlangan bu misralarda shoir O'zbekistonni oltin uzukka qiyos etadi va xaritada shaklini "hiloliy nusxa gul"ga mengzaydi. Shunday ko'tarinki ruh asar so'ngigacha davom etadi. Binobarin, bu shoir uslubidagi novatorlikni o'zida namoyon etganini ko'rish mumkin.

E.Vohidov ijodida "Gullar bazmi" g'azali alohida ajralib turadi. Unda shoir olamning badiiy manzarasini aks ettirishda g'uncha va sakkizta gul nomini keltirib o'tadi. Bular: lola, karnaygul, nargis, safsargul, qirg'og'ini gul, pechakgul, shohigul hamda nilufar. G'azalga tashxis, tanosub, husni ta'lil, tashbeh she'riy san'atlari zeb bergan. Gullar jonlantirilib, ularga inson qiyofasi, xarakter-xususiyatlari singdirilgan. Bu usul orqali kishilardagi fazilat yoki nuqson va kamchiliklarga urg'u berilgan. Lola mag'rurlanib, o'zini

gullar ichida shoh, ya'ni eng asl gul sanagani uchun, yuzi qizarib sharmanda bo'ladi, gulshandagi gullar ichida uyatga qoladi. Demak, lola hayotimizda tez-tez uchrab turadigan kibrli, manman kishilarning timsoli bo'lib kelgan. Karnaygulni tasvirlashda shoir uning tuzilish shaklini inobatga olgan holda yondashadi. Go'yoki, gulshanda yorning malaksifat jamolini ko'rgan karnaygulning og'zi ochilib qolgan. Bu husni ta'lil san'atining mahsuli sifatida ko'zga tashlanadi. Karnaygul ajib bir narsani ko'rganda darhol o'zini yo'qotib, garangsirab qoladigan kishilarning xarakterini ifodalagan.

She'riyatda nargis guli an'anaviy tarzda yor ko'ziga qiyos qilib kelingan. Shu jihatini ko'zdan qochirmagan shoir uni maftunlik, oshuftalik ramzi qilib tasvirlaydi.

Safsargul, odatda, suv bo'ylarida o'sadi. Uning yerga egilib turishi haqida oldingi bobda mulohaza bildirgan edik. Zero, E.Vohidov ham gullarga inson sifatlarini singdirishda ularning holatini ko'zdan qochirmaganligini ta'kidlash zarur. Safsargulning sanam oyog'iga bosh qo'yib, band-band uzilishi ortida chin oshiq insonlar qiyofasini ko'rish mumkin.

Qirg'og'ini guli o'zini ma'shuqa tig'iga uradi. Bu uning hech narsadan qo'rqmasligi, dovyurakligini ko'rsatadi. Yor visoli uchun o'zini qurbon qilishga hamisha tayyor. Mard, jasur, qo'rqmas insonlarda shu fazilatlar mujassam.

Gullar ichida pechakgul alohida ajralib turadi. Uning tanasi uzun, har qanday masofaga bo'ynini cho'za oladi. Elastiklik qobiliyati tufayli nozli xirom eta oladi. Ya'ni pechakgul hammaning ko'ngliga yo'l topib keta oladigan, yoki, aksincha, har doim "suvdan quruq chiqib ketadigan" insonlar obrazini gavdalandirgan.

Pechakgulning raqsiga xonanda – shohiguldur. Hayotda shunday kimsalar uchraydiki, ular birovning "nog'orasiga o'ynaydilar". Bir umr uning chizgan chizig'idan chiqmay, aytgan yo'rig'ida yuradilar. G'azalda shohigul mana shunday kishilarning timsoli bo'lib kelgan.

"Gullar bazmi"ning yettinchi baytida suvda qalqib keluvchi, oq tusli nilufar ma'shuqaga peshvoz chiqib, unga oshiqadi. Uning oq rangli ekanligi, hamisha suv ichida yashashi, hur, ya'ni suyukli uchun yelkanlik qilishi ezgulik, umid, sog'inch tushunchalarini birlashtirib turadi. Demak, nilufar gul borliqqa muhabbat taratib, ezguliklarni sog'inuvchi kishilar ramzini ifodalab kelgan. Bir g'azalning o'zida o'nga yaqin gulni jamlash, ularning holatiga qarab inson xususiyatlarini aks ettirish, betakkor badiiy san'atlardan mohirona foydalana olish shoir E.Vohidov uslubining oharli qirralarini namoyon etadi.

E.Vohidovning "Lola sayli" g'azali ishq-muhabbat tuyg'usini haqqoniy gavdalandirishning go'zal namunasi. Bu g'azalda tasvirlanishicha, oshiq yigit bahor tonglaridan birida o'z sevgilisini lola sayliga taklif etadi. Hur, ozod, sevimli qiz yigitning bu taklifini mamnuniyat va erkalik bilan "mayliga" deb qabul qiladi. Sevguchi yigit yor lutfidan boshi ko'kka yetib, ko'z o'ngida osmon yorishib ketadi va uning xayolida inson erki, sevishtanlar muhabbati poymol qilingan zamonlar jonlanadi. Nega majnun o'z sevgilisi Laylini lola sayliga taklif etolmaydi, – degan savol xayolida kezadi. Yangi zamonning dono qizi yigitning bu xayoliy savolini sezib, "Ahli ishq ham boqqay, albat, o'z zamonin zayliga", – deya javob beradi. Ular dasht-u qirlar, tog'lar tomon yo'l oladilar. Kun bo'yi baxmal qirlarda yayrab, quchoq-quchoq lola teradilar va shaharga qaytadilar. Shahar ko'chalarida sayr qilib yurgan o'zlariday yigit-qizlarni ko'rar ekanlar, xursandliklari yanada ortadi. Ular lolalarni "erkin muhabbat xayliga" tarqatib, dam olish kunini mamnunlik va baxtiyorlik bilan yakunlaydilar.

Bu hodisa juda hayotiy bo'lib, erkin muhabbatning zavqli bir lavhasidir. Shoir hayotiy hodisani g'azala ustalik bilan singdirgan, yoniq harorat bilan poetiklashtirgan. Natijada ajoyib realistik g'azal bunyodga kelgan. *Shunga ko'ra, yangi o'zbek adabiyotida yaratilgan bu kabi g'azallarda shartli-romantik obrazlar emas, hayotiy konkretlikka ega realistik obrazlar gavdalandirilganini ta'kidlash zarur*. Darhaqiqat, Erkin Vohidov g'azalini yangi mazmun bilan boyitdi. Unda o'z zamonasining yigit-qizlari obrazini yaratib, ularga xos yangicha ishq-muhabbatni, yangi davr kishisining his-kechinmalarini kuylab, bu sohada bemisl yangiliklarga erishdi. Bunda gul obrazlari va ular bilan bog'liq unsurlar yordamga kelganini unutmashlik lozim.

⁹ Олимжон Ҳ. Дарё каби уйғоқ ўтурман. Сайланма. – Т.: Шарқ, 2009. – Б. 31.

¹⁰ Asqad Muxtor/nashrga tayyorlovchi Ikrom Iskandar. – Т.: Akademnashr, 2020. – В. 88.

¹¹ Воҳидов Э. Танланган асарлар. – Т.: Шарқ, 2018. – Б. 101.

¹² Воҳидов Э. Танланган асарлар. – Т.: Шарқ, 2018. – Б. 199.

Yangi o'zbek she'riyatida ayrim gul nomlarining kishi ismlariga ko'chirilganiga guvoh bo'lamiz. Bu holat H.Olimjon ijodida uchraydi:

Lola boqchaga chiqib
Kechga qadar gul terdi.
Etak-etak to'pladi,
Har kungidan mo'l terdi¹³.

Shoirning bolalarga bag'ishlangan "Lola" she'ri gulga qiyosan qo'yilgan Lola ismi bilan bog'liq. U bog'chaga qatnaydigan jaji qizaloqning ismi ekanligi anglashiladi. Lolaning band so'ngida "gul kabi uxlab qolishi" tasviri bolalarning beg'ubor, sof olamini ifodalashga xizmat qilgan.

G'uncha va gul haqida mumtoz she'riyatimizda ko'plab she'rlar yozilgan. Bunday she'rlarda ko'pincha yor labi yoki oshiqning firoqda qon bo'lgan yuragi g'unchaga qiyos etilgan.

E.Vohidovning "G'uncha" nomli g'azalidagi lirik qahramon o'zini g'unchaga qiyos etganligi kuzatiladi. Lekin lirik qahramon o'z tafakkur yo'sini, ruhiy holati bilan yangi davr kishisi bo'lgan zamondoshimiz ekanligi ochiq-ravshan anglashilib turadi. G'azal boshdan-oyoq yigitning g'unchaga savoli tarzida yozilgan:

Barg ostidan muloyim boqqan iboli g'uncha,
Ne sirni saqlagaysan, bag'ring nechun tuguncha?
Pinhon siring bayon et, ko'ksingni qilma ko'p qon,
Bu yoki ishq atalgan bizga ayon tushuncha?¹⁴

Bu savollarda lirik qahramon – oshiq yigitning ichki dunyosi juda ravshan ochiladi. Shu bilan birga "Pinhon siring bayon et, ko'ksingni qilma ko'p qon", "Sevmoq uyat emasdir", "Qo'y, ko'p qizarma, g'uncha", "Ayt, sevganingni senga parvosi yo'qmi uncha" degan savollar bizga zamondosh bo'lgan yigitning muhabbatga to'la qalbini, his-kechinmalarini ifoda etadi. U g'uncha bilan qanchalik dardlashmasin, o'z muhabbatini yoriga izhor etolmayotganidan qanchalik iztirob chekmasin, baribir unda umid bilan yashash istagi kuchli. Bu, ayniqsa, lirik qahramonning g'unchaga aytgan yakunlovchi so'zida ko'rinadi:

Ey g'uncha, sabr aylab umidi vasl qilg'il,
Hijronu yor jafosi bizga faqat buguncha¹⁵.

Bunda tashxis san'atidan mohirona foydalanilgan. Ma'lumki, tashxis asosida o'xshatish ham yotadi. Avvalo, shoir g'unchani iboli qizga qiyoslab, shu ko'rinishda uni jonlantirganligi ko'rinadi.

A.Oripovning "Bahor" she'rida Chig'atoy qabristoni tilga olingan. U yer – manguilik maskani. O'.Hoshimov "Dunyoning ishlari" qissasida: "Bahor devorning oftobro'ya etaklaridan boshlanmaydi, bahor ariqlarning kungay sohillaridan boshlanmaydi. Bahor mana shu yerdan boshlanadi"¹⁶ kabi go'yat ta'sirli fikrlari bilan qabristonga ishora qiladi. A.Oripov ham u yerni "sokin el" deb ataydi. Qabrlar ustida yastangan mas'um binafsha obrazi ko'ngillarga allaqanday bir hazinlikni olib kiradi. Aslida, binafsha – bahor darakhchisi. Bunda binafsha obrazi tiriklikni ifodalab keladi. Undagi ma'sumlik esa mangu maskan bilan bog'liq. So'nggi misralardagi gul obrazi ham timsoliy mazmunga ega. Uning ochilishini, yashnab turishini shoir "Marmar sag'anadan o'qib turar bayt..." tarzida beradi:

O'chgan xotiralar chirog'in yoqib,
Qarayman, qabrlar yastanmish qator,
Ma'sum binafshadan sirg'alar taqib
Kimningdir ko'ksiga ergashganча gul,
Marmar sag'anadan o'qib turar bayt...¹⁷

She'rning mazkur bandleri hayotsevarlik mazmuni bilan yo'g'rilib borganligiga guvoh bo'lamiz.

Dilbar kelinchakning ko'ksida g'ulu,

Zardolu shoxiga tashlar ko'z qirin.
Barg aro shu'lalar, kaftlarmikin u...
Bahor tetapoya go'dakdek shirin....
Qizg'aldoq bargidek uchar dildan g'am
Toshqinlar kiradir qalbimga mening.
Bahoring muborak bo'lsin ushbu dam,
Mening O'zbekiston – dilbar Vatanim...¹⁸

Yuqoridagi satrlarda dilbar kelinchak, zardolu, barg, kaft, qizg'aldoq kabi obrazlar bor. Farzand kutayotgan dilbar kelinchakning shirin tuyg'ulari, his-kechinmalari shu obrazlar vositasida yuzaga chiqqan. Bunda zardolu (o'rik) obrazi ana shu tuyg'ularning ifodachisi bo'lib keladi. Barglararo ko'ringan shu'lalar esa kelinchakning ko'zlariga go'dakning kaftlari bo'lib ko'rinadi. Shoir shu o'rinda bahorni tetapoya go'dakka o'xshatadi. Bilamizki, qizg'aldoq tabiatning juda chiroyli yaratig'i bo'lib, ozgina shamol esa uning barglari uchib ketadi. Demak, shoir insonni chulg'agan g'am-u dardlarni qizg'aldoq bargaining to'kilishiga o'xshatadi. Chunki bu gulning yaproqlari, odatda, boshqalariga qaraganda juda tez uchadi. Bu bilan lirik qahramon qalbida bahor tufayli shodlik, quvonch hislari inishini hayotiy orqali obrazli ifoda etadi.

A.Oripovning boshqa she'rlarida ham binafsha obrazining takrorlanib kelganligini va turli ma'no-mazmunni ifodalab kelganligini kuzatish mumkin. Shu jihatdan binafshani shoir ijodidagi motiv obraz deyish mumkin. "O'rmon" she'ri bunga misol bo'la oladi:

Sening quchog'ingda oqshomlar mayin –
Tuydim tuyg'ularning soz nash'asini,
Za'faron zulfingga taqib ketayin
Olis cho'llarimning binafshasini¹⁹.

Yuqoridagi satrlarda o'rmon manzarasi chizilgan. Shoir bunda alliteratsiyani qo'llaydi (tuydim tuyg'ularning, za'faron zulfingga). She'rdagi binafsha obrazi mavjud. Za'faron zulf deganda, o'rmondagi daraxtlarning sarg'aygan barglari nazarda tutiladi. Lirik qahramon olis sahrolarning binafshasini shu barglarga taqib ketmoqchi. Demak, misrada binafsha hayotning davomiyligi ramzi bo'lib keladi.

Yoki "Binafsha diyori" she'ri ham ahamiyatli:

Amu bilan Sirga payvastdir jonim
Bundadir chamanning asli, sarasi.
Binafsha yurti bu –
O'zbekistonim [8, 50].

Ma'lumki, Vatan she'riyatda juda turli tashbeh-u istioralarda beriladi. A.Oripov ham O'zbekistonni binafsha yurti deb atar ekan, uning mangu yashilligiga, barhayot yashnab turishiga ishora qiladi. "Binafsha" nomli she'rida esa shoir uni nozik, ma'suma, diltortarli bois qizga mengzaydi:

Hayot qonunlari buzilmas hargiz,
U aslo rejasin o'zgartirmagay.
Shu nozik binafsha, shu ma'suma qiz
Qish bilan, qor bilan kurashmoqqa shay²⁰.

Misralarda qishning qirovli qorlarini yengib, shamol-u bo'ronlarni pisand qilmasdan bahorning ilk qadamlarini olqishlash uchun jasorat ko'rsatuvchi binafsha mard qizga tenglashtiriladi. Xalq orasida kimdir birinchi bo'lishi kerak degan gap bor. Mana shu birinchilikni har bahor o'z zimmasiga oladigan binafsha – mard qizlarning timsolidir.

Cho'povning bolalarga bag'ishlangan "Boychechak" nomli she'ri bor. U xalqona, sodda uslubda yozilganligi bilan folklor qo'shiqlariga yaqin turadi. Qadimda bahor kelishiga sanoqli kunlar qolganda bolalar boychechak izlab dalaga chiqib ketishgan. Bir dona bo'lsa ham boychechakni ko'rishsa, uni avaylab uzib, xonadonmixonadon ko'rsatib yurishgan:

"Boychechakning bolasi"

¹³ Хамид Олимжон. Мукаммал асарлар тўплами. Ўн томлик. Биринчи том. Шейрлар. – Т.: Фан, 1979. – Б. 250.

¹⁴ Вохидов Э. Танланган асарлар. – Т.: Шарк, 2018. – Б. 199. – Б. 63-64.

¹⁵ Вохидов Э. Танланган асарлар. – Т.: Шарк, 2018. – Б. 199. – Б. 64.

¹⁶ Hoshimov O'. Dunyoning ishlari: Qissa va hikoyalari. – Т.: Yangi asr avlodi, 2015. – Б. 253.

¹⁷ Орипов А. Танланган асарлар. Еттинчи жилд. Шейрлар, достон, мақолалар, сўхбатлар, қайдлар. – Т.: F.Ғулум номидаги нашриёт-матбаа ижодий ўйи, 2013. – Б.123.

¹⁸ Орипов А. Танланган асарлар. Еттинчи жилд. Шейрлар, достон, мақолалар, сўхбатлар, қайдлар. – Т.: F.Ғулум номидаги нашриёт-матбаа ижодий ўйи, 2013. – Б.125.

¹⁹ Орипов А. Йиллар армони. –Т.: F.Ғулум номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1987. – Б. 247.

²⁰ Орипов А. Танланган асарлар. Еттинчи жилд. Шейрлар, достон, мақолалар, сўхбатлар, қайдлар. – Т.: F.Ғулум номидаги нашриёт-матбаа ижодий ўйи, 2013. – Б. 60.

Har uyda kuldi.
Go'daklarning xaltasi
Non bilan to'ldi!..²¹

Qish bo'yi ochlikdan qiynalgan xalq, ayniqsa, bobo-buvilar boychechakni ko'zlariga surtib, "omonliq-somonliq" qilib, bahorga yetib kelganliklari uchun shukronalar qilishgan. Suyunchisiga bolalarning xaltasiga non kabi yeguliklar solib jo'natishgan. She'rda shu qadimiy odatga ishora bor. Bunda boychechak bahor elchisi sifatida talqin etilgan.

Asqad Muxtor ijodida ham boychechakka bag'ishlangan to'rt misradan iborat "Boychechak" nomli she'r bor. Bunday go'yani yuqorida tilga olganimiz A.Oripovning "qish bilan, qor bilan kurashmoqqa shay binafsha"sida ham kuzatgan edik:

Qor tagidan dadil bosh suzar
Umri qisqaligini yaxshi biladi.
Ammo ko'zi tiniq, chunki dili sezar:
Bahorga so'qmoqlar ochib o'ladi [3, 40].

Chindan ham, binafsha va boychechaklarning umri juda qisqa, ammo ko'pga tatigulikdir. Ular qishdan horigan dalalarga, kengliklarga bahorni boshlab keladi. Qahratonda yeyishga yeguligi qolmay, bahorga arang yetib kelgan elning ko'ngliga quvonch ulashib, o'zlari sokin olamga sekin va jimgina bosh qo'yadi. She'rda A.Muxtorning kontrast usulidan mahorat bilan foydalanishiga ko'rinadi. Bunda quvonch ortidan qayg'u kelishi zid holatni yuzaga keltirgan.

Usmon Azim opasi Saidaga bag'ishlangan she'rini "Boychechak" deya nomlagan. Opasi yozgan xatga javoban yozilgan she'r bolalik sururini yodga soladi:

Oq yomg'irda boshyalang
Raqs tushamiz o'ynaymiz,
Kamalakka ko'milib,
Kulib-yig'lab kuylaymiz!
"Boychechagim boylandi,
Boychechagim boylandi..."²²

Bahor va yoshlik tarovati ufurib turgan misralar sog'inch hislariga yo'g'rilgan. Bu satr lirik qahramonni beixtiyor bolalik so'qmoqlariga yetaklaydi. Uzoqlardan o'sha mashhur xalq qo'shig'i sadolari quloqqa chalinadi: "Boychechagim boylandi...". She'rda obrazlar tizimi pishiq. Ular tasvirning aniq va ishonarli chiqishida muhim rol bajargan.

E.Vohidovning badiiy mahorati u yaratgan badiiy lavhalar, timsollarning yangiligi, betakrorligi bilan belgilanadi. Zero, shoir boshqalar tasvirlagan lavhalar, timsollarni takrorlamaslikka harakat qiladi. Shoir yangidan-yangi tashbehlar, obrazlar, lavhalar yaratishga intiladi. Masalan, yorning qoshlarini ta'riflar ekan, uni nargis bargiga qiyos qiladi:

Ikki qoshing o'sma birlan
Bo'ldi juft nargisli barg,
Ikki barging qoshida men
Titragayman misli barg²³.

Mumtoz she'riyatda yorning ko'zlari nargisga qiyoslanishi ma'lum, lekin shu paytgacha hech bir shoir yorning ko'zi ustidagi qoshlarini nargis gulining bargiga o'xshatmagan. Shu o'rinda E.Vohidovning mutlaqo yangi badiiy timsol yaratganligi ko'zga tashlanadi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdulhamid Cho'lpon. Binafsha. – T.: Adabiyot, 2021.
2. Авлоний А. Танланган асарлар. 2 жилдлик. 1-жилд. Шеърлар. Ибратлар. – T.: Маънавият, 1998.
3. Asqad Muxtor/nashrga tayyorlovchi Ikrom Iskandar. – T.: Akademnashr, 2020.
4. Фитрат, Абдурауф. Танланган асарлар. V жилдлик. I жилд. Шеърлар, насрий асарлар, драмалар. – T.: Маънавият, 2000.

E.Vohidov ijodida bunday betakror lavha va obrazlarni ko'plab uchratish mumkin. U yaratgan har bir badiiy lavha, timsol o'quvchilarda go'zal his-tuyg'u, tasavvur uyg'otadi. Shoir bularning barchasiga badiiy so'zning buyuk qudratiga tayanib erishadi.

She'riy san'atlarni mohirona qo'llash, albatta, shoirning badiiy tafakkur salohiyati, ona tilining cheksiz go'zalliklaridan foydalanish iqtidoriga bog'liq.

Kelasiz deb jambil, rayhon o'tqazdim,
Kim kelibdi dasta-dasta tutqazdim,
Zafar bitmay qoldi – bir oz yutqazdim,
Qardoshlikda oltmish bahor o'tkazdim,
Bizning uyga qo'nib o'ting, do'stlarim!²⁴

G'G'ulom qalamiga mansub yuqoridagi she'rda ham jambil-u rayhon nomi tilga olingan. Ammo ularning har ikkalasi ham o'z ma'nosida – gul turi sifatida qo'llangan. Jambil-u rayhon o'zbek xonadonining ko'rki hisoblanadi. Ular o'zbek xalq koloritining ifodachilari sifatida milliy ruh baxsh etadi. Do'st-u birodarlarni uyga taklif qilish, xonadonga tashrif buyurgan aziz menmonga dasta-dasta jambil-u rayhon taqdim etish xalqimizga xos odatlardan ekanligi ayonlashadi.

Erkin Vohidovning "Gulmida, rayhonmida, jambul" g'azali ishqi mavzuda yozilgan go'zal ijod namunasi hisoblanadi.

Gulzor ichida gulmida, rayhonmida, jambul,
Yo jambul-u rayhon-u gul uzguvchi sanam bul²⁵.

Shoir yorni bog' ichidagi xushbo'y gul va o'simliklarga o'xshatadi, bog'dagi gullar va ma'shuqa yonma-yon qo'yilib, uning go'zalligi ta'rif etiladi. Bunda quyidagi badiiy san'atlardan foydalanilgan:

1. Tanosub (gul, rayhon, jambul).
2. Tashbeh (Gulzor ichida gulmida, rayhonmida, jambul).
3. Tajohuli orif (gulmida, rayhonmida, jambul).
4. Takrir (gulmida, rayhonmida, jambul, jambul-u rayhon-u gul).

Bir baytning o'zida har xil badiiy san'atlarning qo'llanilishi shoir mahoratini belgilaydi. Ta'kidlashimiz boisi, tanosub, tashbeh, tajohuli orif, takrir kabilar gullar obrazi vositasida yuzaga kelgan. Qolaversa, lirikada takrirning bir necha turi birga ishlatilgan yuzlab baytlarni ham uchratish mumkin. Bularning ba'zilari ijodkorning o'zi tomonidan maxsus yaratilgan bo'lsa, ayrimlari she'rdagi fikrning oqimi, mazmun taqozosi bilan yuzaga kelgan. Yuqoridagi baytdan ko'rinadiki, bunda shoir fikr oqimini bo'sh qo'yan. Vaziyatning o'zi misraning shunday davom etib tugallanishini ta'minlagan.

Xulosa. Zamonaviy she'riyatda olamning badiiy manzarasini ifodalashda floristik obrazlarning mavqeyi alohida bo'lib, ularning lirikada qo'llanish genezisi qadimgi davrlarga borib taqaladi. Ular o'z ma'nosidan tashqari turli ramziy ma'nolarni ham ifodalab keladi. Nabotot olamiga mansub obrazlarning qanday ma'no tashishi shoirning dunyoni anglashi va anglata olish qobiliyatiga ko'ra tasniflanadi. Xususan, lola va lolaqizg'aldoq, g'uncha, boychechak, binafsha gullarining obraz darajasiga ko'tarilib, turfa ramziy ma'nolarni ifodalab kelishi yuqorida kuzatganimiz kabi qator shoirlar ijodida kuzatiladi. Ularning obraz sifatida saralanishi mazkur gullarning xarakter-xususiyatlari, rang-tusi, mavjudlik vazifasidan kelib chiqadi. Shu bois, aytish joizki, yangi o'zbek she'riyatida gul obrazlarining o'rganilishi bilan bog'liq yangi tadqiqotlarga milliy adabiyotimiz ehtiyoj sezadi.

5. Ҳамид Олимжон. Мукамал асарлар тўплами. Ўн томлик. Биринчи том. Шеърлар. – T.: Фан, 1979.
6. Hoshimov O'. Dunyoning ishlari: Qissa va hikoyalar. – T.: Yangi asr avlodi, 2015.
7. Олимжон Ҳ, Дарё каби уйғоқ ўтурман. Сайланма. – T.: Шарқ, 2009.
8. Орипов А. Бедорлик: Шеърлар. – T.: Ёзувчи, 1999.

²¹ Abdulhamid Cho'lpon. Binafsha. – T.: Adabiyot, 2021. – B. 76.

²² Усмон Азим. Сайланма. Шеърлар. – T.: Шарқ, 1995. –B. 53.

²³ Воҳидов Э. Танланган асарлар. – T.: Шарқ, 2018. –B. 71.

²⁴ Фафур Ғулум. Мукамал асарлар тўплами. Учинчи том. Шеърлар. – T.: Фан, 1984. –B. 161.

²⁵ Воҳидов Э. Танланган асарлар. – T.: Шарқ, 2018. –B. 420.

9. Орипов А. Йиллар армони. –Т.: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1987.
10. Орипов А. Танланган асарлар. Еттинчи жилд. Шеърлар, дoston, мақолалар, суҳбатлар, қайдлар. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2013.
11. Усмон Азим. Сайланма. Шеърлар. – Т.: Шарқ, 1995.
12. Воҳидов Э. Танланган асарлар. – Т.: Шарқ, 2018.
13. Ғафур Ғулом. Мукамал асарлар тўплами. Учинчи том. Шеърлар. – Т.: Фан, 1984.
14. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2006-2008.
15. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. А.Мадвалиев таҳрири остида. – Т., 2006-2008.
16. <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/adabiyot/milliy-uygonish/begali-qosimov-shuhrat-rizaev-abdulla-avloniy-1878-1934/>